

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN  
UNUMLI FOYDALANISH

Narziyeva Gulshod Mansurovna

*Farg'ona viloyati Dang'ara tumani 32-sonli maktabning ona tili va adabiyot fani  
o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada ona tili va adabiyot darslarini samarali tashkil qilish usullari haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy ta'lim, pedagogik texnologiya, ta'lim-tarbiya, bilim, ko'nikma, malaka.

Yurtimizda zamonaviy ta'lim tizimida yosh avlodni yetuk inson bo'lib voyaga yetishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yanmiz. Jumladan, amalga oshirilayotgan barcha ishlarimiz asosida ana shu maqsad-muddao mujassam. Ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning izchil borayotganligini ko'rish mumkin. Farzandlarimizni sog'lom va baquvvat, barkamol inson etib tarbiyalay olgan yurtdagina taraqqiyot, buyuklik bo'ladi. Shu o'rinda biz pedagoglar oldiga bugungi kunda, ayniqsa, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari zimmasiga juda katta ma'suliyat yuklandi. Ona tili fani darslariga yangi pedagogik texnologiyalarni olib kirish va uni ta'lim tizimini mazmuniga singdirish, tadbiiq etish, darsda yangi usullardan qo'llash, noan'anaviy darslarning ahamiyati, DTS talablarini bajarishga zamin yaratadi. Barchamizga ma'lumki, ona tili va adabiyot fani ta'lim tizimining poydevori bo'lib, o'quvchilarning boshqa fanlarni o'zlashtirishi unga bog'liq bo'ladi va ona tili o'qituvchisi zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi. Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm - fan, texnika ham shiddat bilan o'sib bormoqda. Har bir sohada taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Xususan, ilm - fanda ham katta o'zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quvchilarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Boshqa xorijiy tilni yaxshi o'rganmoqchi bo'lgan kishi avvalo, o'z ona tilini mukammal bilishi, e'zozlashi, qadrlashi lozim. Maktabda ona tili fanini o'qitishning ijtimoiy ahamiyati shundaki, bu fanni chuqur o'zlashtirgan o'quvchining nutqi rivojlanib, milliy madaniyati yuksaladi. Qalbida vatanparvarlik hissi jo'sh uradi. Bu yo'lda esa o'quvchilarga faqat ilm o'rgatish emas, balki ularning til malakasini oshirish ham dolzarb vazifadir. Ona tili fani darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib, elektron darsliklar asosida olib borish o'qituvchi uchun yaqin ko'makdosh vazifasini o'tashi mumkin. Chunki ona tili fanidagi ayrim mavzularni o'quvchilarga tushuntirish qiyinchilik tug'dirayotganini inobatga olish kerak. O'quvchilarning murakkab mavzularni o'zlashtirishida o'qituvchidan eshitgandan ko'ra AKT orqali ko'rib tushungani o'qituvchining o'ziga ham yordam beradi. O'quvchining yozma nutqiy ko'nikmalarini hosil qilishda nafaqat grammatik bilimlar, balki sara bilimlarni egallashi zarur. Chunki o'quvchilar grammatik bilimlar yordamida to'g'ri jumlar tuzishni o'rgansa, nutqiy bilimlar orqali so'zlarni tanlash, so'zlarni o'z joyida ma'lum ifoda vositalari sifatida qo'llab, mazmunini maqsadga muvofiq ifodalashga o'rganadilar. Ona tili va adabiyot darslarida har bir mavzuni axborot kommunikatsiya va

ilg`or pedagogik texnologiya usullaridan foydalanib o`qitish katta ahamiyatga ega. Davlat ta`lim standartlarida o`quvchilarning kommunikativ savodxonligini oshirish bosh maqsad qilib belgilangan. Buning uchun dars jarayonida elektron darslik, qo`llanma, dars ishlanma, o`quv film, videodarslar, slydlar va ko`rgazmali materiallar bo`lishi lozim. Dars jarayonida faqat o`tilayotgan mavzuga oid materiallardan – elektron dars ishlanmasi, multimediali vositalar yoki videofilm, o`quv filmlari, didaktik materiallardan foydalanish ta`lim sifati hamda samaradorligini ta`minlaydi. O`quvchi darsni ma`ruza shaklida eshitishdan ko`ra, slydlar orqali ko`rib, ba`zi mashqlarni bevosita kompyuterda bajarsa, o`zlashtirishi osonlashadi. Hozirgi kun ta`limining asosiy maqsadlaridan biri dars jarayonida o`quvchilarni faollashtirish orqali ularga bilim olish yo`llarini o`rgatish, ta`lim jarayonida ilg`or pedagogik texnologiya usullarini samarali qo`llashdan iborat. Ona tili darslarida ta`limning interfaol usullaridan foydalanish o`quvchilarda mantiqiy, mustaqil fikrlash ko`nikmalarini shakllantirib, guruhlarda va hamkorlikda ishlashga o`rgatadi. Dars jarayonida ta`limiy o`yinlarni samarali qo`llash orqali o`quvchilarda tezkorlik, topqirlik, sezgirlik, bilim olishga va fanga bo`lgan qiziqishlari yanada oshadi. Shuni alohida ta`kidlash joizki, bolalar ko`proq eshitganidan ko`ra, ko`rganiga ishonishadi. Demak, biz o`qituvchilarning vazifamiz faqat aytib o`qitish yoki ta`kidlash emas, balki aytganlarimizni ko`rsatib ham berishimiz lozim. O`z tajribamdan kelib chiqib, ona tili va adabiyot darslarida quyidagi interfaol usullardan foydalanishni tavsiya etaman: —Taqqimot`l usuli. Ushbu usulda ma`lum bir mavzu yoki bo`limlar yakunida o`tkaziladigan takrorlash darslarini tashkil qilish mumkin. Bunda o`quvchilar yakka tartibda, juftlikda yoki guruhlarda ishlab, berilgan mavzu bo`yicha mustaqil izlanib, materiallar to`playdi, ularni saralaydi, asosiylarini tanlab olib taqqimot qiladi. Masalan —Alisher Navoiy hayoti va ijodil mavzusida taqqimot darsi o`tkazilganda o`quvchilarni avvaldan guruhlarga bo`lib, quyidagi yo`nalishlar bo`yicha taqqimot qilish topshiriladi: 1-guruh. Alisher Navoiy hayoti va faoliyatini xronologik jadval asosida tushuntiring. 2-guruh. Alisher Navoiy ijodini —Klaster`l usuli asosida tushuntiring. 3-guruh. Alisher Navoiy lirikasini —Kungaboqar`l usuli asosida tushuntiring. 4-guruh. Alisher Navoiyning —Xamsal`l asarini konseptual jadval asosida tushuntiring. Har bir guruh berilgan yo`nalishlar bo`yicha darslik va qo`shimcha adabiyotlardan foydalanib ma`lumot to`playdilar va slyd yoki chizmalar orqali taqqimot qiladilar. Ona tili va adabiyot darslarida —Ha... yo`ql, —Ta`rif egasini topl, —Men kimman`l, —Dominol`l kabi didaktik o`yinlardan foydalanish mumkin. O`yin vaqtida o`quvchilar o`zini erkin tutadi, bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada o`quvchida ishonch, qat`iyat paydo IJODKOR bo`ladi. Munozaraga kirishishni o`rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o`quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim. Mohiyat bosqichida har bir guruh o`z rejasini izohlab beradi. Bu usulni qo`llash uchun oldindan o`quvchilarga yangi mavzu yuzasidan tayyorlanib kelish topshirig`i beriladi. Bu usul orqali o`quvchilarda izlanuvchanlik, yangi mavzuni o`rganish uchun qiziquvchanlik sifatleri shakllantiriladi. —Mazmun va mohiyat`l usulini qo`llashdan kutiladigan natija: - O`quvchilarning tashabbuskorligi ortadi; - O`quvchilar mavzu yuzasidan keng ko`lamli tushuncha va ma`lumotlarga ega bo`ladi; - Darsda har bir o`quvchining ishtiroki ta`minlanadi; -Yangi mavzuga o`quvchilar oldindan tayyorlanib, ma`lumotlar yig`ishga intiladi. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan dars o`quvchilarning

fanga bo'lgan qiziqishini orttiradi, ularni mustaqil bilim olishga undaydi va dars samaradorligini oshiradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. A. G`afurov. Ona tili o`qitish prinsplari va metodlari. T. O`qituvchi. 1992
2. Mengliyev B. Xoliyorov O`. O`zbek tilidan universal qo`llanma. T- 2013